O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING

KATTAQO‘RG‘ON FILIALI

Ro’yxatga olindi

№ BD-60410500

____ _____

“TASDIQLAYMAN”

Direktor

_____ Sh.R.Urakov

2022-yil “05” 09

BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA OPERATSION TEXNIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	**60410500-Bank ishi va audit**

Kattaqo‘rg‘on- 2022

Fan/modul kodi BBH1605		**O'quv yili** 2024-2025	**Semestr** 6-semestr	**Kreditlar** 6-semestr 5
Fan/modul kodi Majburiy		**Ta'lim tili** O'zbek		**Haftadagi dars soatlari** 4
1.	**Fanning nomi**	**Auditoriya mashg'ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta'lim (soat)**	**Jami yuklama (soat)**
	Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika	68	82	150

2. I. Fanning mazmuni

"**Banklarda buxgalteriya hisobi va opiratsion texnika**" fanini o'qitishning maqsadi – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha nazariy bilim berish orqali ko'nikmalar xosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga bank buxgalteriyasini tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlari berish, tijorat banklarida buxgalteriya hisobini halqaro standartlar asosida yuritishni tashkil qilish, bank buxgalteriyasi operatsiyalarini rasmiylashtirilishi va hisobini o'rganishdan iborat.

Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. " Pul muomilasi va kredit asoslari " fani " Bank ishi ", " Bank auditi ", " Bank statistikasi ", " Buxgalteriya hisobi nazariyasi", " Bank nazorati " fanlari bilan bog`liq.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi

Banklarda buxgalteriya hisobining mazmuni va uni tashkil etishning ahamiyati. Bank hisob-operatsion apparatining tuzilishi; buxgalteriya xodimining huquq va majburiyatlari, banklarda buxgalteriya xisobini tashkil qilish asoslari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari buxgalteriya hisobining hisobvaraqalar rejalari va ularning tavsifi; bank balansi va uning tuzilishi.

2- mavzu. Bank hujjatlari va hujjatlar aylanishi, bank ichki nazorati, banklarda bosh va yordamchi kitoblar

Bank hujjatlarining mazmuni, ahamiyati, turlari va ularning tavsifi. Elektron xujjatlar va ularni shakllantirish. Banklarda hujjatlar aylanishini tashkil qilish, buxgalteriya hujjatlarini saqlash tartibi, arxivlashtirish. Bank ichki nazorati, uning turlari va ahamiyati, ichki nazoratni tashkil qilish, dastlabki nazorat, joriy nazorat, so'nggi nazorat. Bosh va yordamchi kitoblarning mazmuni. Yordamchi kitob va uning tavsifi, bosh kitob va uning tavsifi. Bosh va yordamchi kitoblarni tekshirish, buxgalteriya yozuvlaridagi xatolarni tuzatish tartibi.

3- mavzu. Mijozlarga hisobvaraq ochish va yuritish tartibi, banklarda depozit operatsiyalari hisobi

Banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari. Bank hisobvaraqlarini yuritish bo'yicha

shartnoma va uning mazmuni. Hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibi. Mijozlar hisobvaraqlarini yopish va qayta rasmiylashtirish tartibi. Depozit operatsiyalari hisobining tashkil etilishi. Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hisobi. Muddatli va jamg'arma depozitlari bo'yicha operatsiyalar hisobi. Mijozlarning boshqa depozit hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar hisobi.

4- mavzu. Naqd pulsiz hisob – kitob operatsiyalari hisobi, banklararo hisob-kitoblar hisobi

Naqd pulsiz hisob-kitoblar mohiyati va ularni tashkil etish asoslari. To'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar, to'lov talabnomalari bilan hisob-kitoblar; akkreditivlar bilan hisob-kitoblar; inkasso topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar, tijorat bankning hisob-kitob cheki bilan hisob-kitoblar, bank plastik kartochkalari bilan hisob-kitoblar, memoreal orderlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, ularni rasmiylashtirilishi va hisobini yuritish. O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish istiqbollari. Banklararo hisob-kitoblarning mazmuni va ularning tashkil etilishi. Banklarning vakillik hisobvaraqlari ochilishi va yuritilishi. Elektron to'lov tizimi. Banklararo hisob-kitoblarning elektron to'lov tizimi orqali tashkil etilishi va hisobga olinishi. Hisob markazlari ishining tashkil etilishi. Yagona vakilik hisobvarag'ining mohiyati, ahamiyati va yuritilishi.

5- mavzu. Banklarda kassa operatsiyalari hisobi

Banklarda kassa operatsiyalarini tashkil qilish, bank kassalarining turlari. Kirim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorati. Chiqim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorati. Kechki kassalarning faoliyati. Pul tushumlarini inkassatsiya qilish tartibi va hisobi. Zahiradagi naqd pullarni hisobga olish. Valyuta ayirboshlash shaxobchalarida naqd pullar hisobini yuritish.

6- mavzu. Banklarda kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi

Qisqa va uzoq muddatli kredit operatsiyalari hisobining tashkil etilishi. Kredit operatsiyalari bo'yicha sintetik va analitik hisobning yuritilishi. Ssuda hisob varaqalarini ochish tartibi. Kredit liniyalarini ochib va ochmasdan alohida ssuda hisobvaraqlaridan kredit berish va qaytarish operatsiyalarining hisobi. Boshqa kredit turlari bo'yicha operatsiyalar hisobining xususiyatlari. Muddatli va muddati o'tgan ssudalar bo'yicha foizlar hisoblash va undirish tartibi. Bankrot tashkilotlarni sotib olish, modernizatsiya qilish va xorijiy investorlarga sotish operatsiyalari va ularning hisobini yuritish tartibi.

7- mavzu. Banklarda lizing va faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobi

Banklarda lizing operatsiyalarini tashkil etilishi. Lizing operatsiyalari turlari va ularni amalga oshirish tartibi. Lizing operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirilishi. Faktoring operatsiyalari mohiyati va ularni tashkil etilishi. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi. Faktoring operatsiyalari hisobini yuritishning xususiyatlari, Faktoring operatsiyalarining hisobi.

8- mavzu. Banklarda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar hisobi, valyuta operatsiyalari hisobi

Qimmatli qog'ozlar va ularning turlari. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan bank operatsiyalarining tavsifi. Tijorat banklari tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar hisobi. Bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar hisobi. Tijorat banklari kapitalini tashkil qilish bilan bog'liq qimmatli qog'ozlar operatsiyalari hisobi. Qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish bilan bog'liq operatsiyalar hisobi. O'zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlarini tartibga solish. Valyuta opratsiyalarini tashkil etish va hisobi. Valyutalarini sotib olish va sotish bilan bog'liq operatsiyalari hisobi. Valyuta ayirboshlash shaxobchalarida naqd pul va chet el valyutasi hisobini yuritish tartibi.

9- mavzu. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlar hisobi

Bank asosiy vositalarining mazmuni va ularning turlari; bank asosiy vositalarining hisobi. Amortizatsiya hisoblash usullari va tartibi. Asosiy vositalarni kirim qilish, qayta baholash, ijaraga berish, hisobdan chiqarish va foydalanish tartibi hamda xisobga olinishi. Nomoddiy aktivlar mohiyati, turlari va ularni hisobga olish. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobi.

10- mavzu. Bank daromadlari va xarajatlari hisobi, banklarda soliqlar hisobi

Bank daromadlari va ularning tarkibi. Bankning foizli va foizsiz daromadlari, ularning hisobi. Bank xarajatlari, ularning tarkibi, bankning foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarini hisobga olish. Bank faoliyati moliyaviy natijalarining hisobi. Bankning byudjet va byudjetdan tashqari to'lovlari turlari va ularni hisoblash. Banklarda daromad solig'i, qo'shimcha qiymat solig'i, ekologiya solig'i, mol-mulk solig'ini hisoblash va hisobini yuritish tartibi. Byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha operatsiyalarni bank buxgalteriya hisobida aks ettirilishi.

11- mavzu. Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobi

Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobi mazmuni. Bank kafolatlari va ularning hisobi. Muddatli bitimlar va ularning hisobi. Banklarda qimmatliklarni saqlash xizmatlari hisobi. Trast operatsiyalari hisobi.

12- mavzu. Tijorat banklarida mijozlarga kassa xizmatini ko'rsatish tartibi va ularning hisobi

Tijorat banklarda kassa ishlarining tashkil etilishi. Kirim kaasa operatsiyalari, ularni hisobga olish va rasmiylashtirish. Kassaning chiqim operatsiyalari, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi. Naqd pul zaxirasi bo'yicha operatsiyalar hisobi. Mijozlarning naqd pul tushumini inkassatsiya qilish operatsiyalarini hisobga olish. Pul almashtirish shahobchalarida kirim va chiqim kassa operatsiyalari hisobini tashkil etilishi. Bank binosidan tashqarida joylashgan minibanklarda kassa operatsiyalarining buxgalteriya hisobi.

13- mavzu. Banklarda analitik va sintetik hisobning yuritilishi.

Analitik va sintetik hisob to'g'risida umumiy tushuncha. Banklarda buxgalteriya hisobi ikki yo,,nalishda olib boriladi. Ulardan biri analitik, ikkinchisi sintetik hisobdir. Yordamchi kitobdagi hisobvaraqlar guruhi har bir alohida ope-ratsiya bo'yicha o'tkazilgan summalar haqida kerakli axborot beradi. Umuman, sintetik hisob yuritishda Bosh kitobdan va analitik hisob yurtishda Yordamchi kitoblardan foydalaniladi.

14- mavzu. Bank ustav kapitali va uning hisobi

Bankning ustav kapitali haqida tushuncha. Bankning ustav kapitali va unga qo'yiladigan talablar. Bank kapitali hisobining yuritilishi.

15- mavzu. Bank buxgalteriya hisobotlari

Bank buxgalteriya hisobotlarining ahamiyati va turlari. Joriy buxgalteriya hisobotining mazmuni. Yillik hisobotning mazmuni, uni tuzish va tasdiqlash tartibi. Bank kunlik balansi mohiyati va tuzish tartibi. Tijorat bankarining moliyaviy hisobotlari. Yillik bank hisobotlarini matbuotda e'lon qilish.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarida talabalar o'tilgan mavzular bo'yicha o'zlaridagi bilim va ko'nikmalari hamda malakalarini amaliy jihatdan mustahkamlab boradilar.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda darslik va uslubiy qo'llanmalar asosida bilimlarni mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy

maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali o'quv vositalarni tayyorlash tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi
2. Bank hujjatlari va hujjatlar aylanishi, bank ichki nazorati, banklarda bosh va yordamchi kitoblar
3. Mijozlarga hisobvaraq ochish va yuritish tartibi, banklarda depozit operatsiyalari hisobi
4. Naqd pulsiz hisob – kitob operatsiyalari hisobi, banklararo hisob-kitoblar hisobi
5. Banklarda kassa operatsiyalari hisobi
6. Banklarda kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi
7. Banklarda lizing va faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobi
8. Banklarda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar hisobi, valyuta operatsiyalari hisobi
9. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlar hisobi
10. Bank daromadlari va xarajatlari hisobi, banklarda soliqlar hisobi
11. Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobi
12. Tijorat banklarida mijozlarga kassa xizmatini ko'rsatish tartibi va ularning hisobi
13. Banklarda analitik va sintetik hisobning yuritilishi
14. Bank ustav kapitali va uning hisobi
15. Bank buxgalteriya hisobotlari
16. Buxgalteriya hisobidagi xato yozuvlarni tuzatish.
17. Banklarda hujjatlar aylanishi va bank nazoratining tashkil qilinishi
18. Buxgalteriya operatsiyalarini joriy nazoratdan o`tkazish.
19. Banklarda mijozlarga hisobvaraq ochish tartibi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Bank hujjatlari va hujjatlar aylanishi.
2. Bank ichki nazorati.
3. Banklarda bosh va yordamchi kitoblar.
4. Mijozlarga hisobvaraq ochish va yuritish tartibi.
5. Banklarda depozit operatsiyalari hisobi.
6. Banklarda kassa operatsiyalari hisobi.
7. Banklarda kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi.
8. Valyuta operatsiyalari hisobi.
9. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlar hisobi
10. Banklarda balansdan tashqari operatsiyalar hisobi.
11. Banklarda hujjatlar aylanishi va bank nazoratining tashkil qilinishi
12. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar hisobi.
13. Bank ustav kapitali va uning hisobi
14. Tijorat banklaridagi qimmatli qog'ozlar bilan passiv va aktiv operatsiyalar
15. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining tashkil qilinishi
16. Banklarda analitik va sintetik hisobning yuritilishi
17. Tijorat banklarida kreditlash operatsiyalarining rasmiylashtirilishi va hisobi
18. Banklarda moliyaviy natijalar hisobi va moliyaviy hisobot
19. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi.
20. Tijorat banklarida hujjatlashtirish, hujjatlar aylanishi, bank nazorati va uning turlari
21. Banklarning hisob-operatsion bo'limi va uning vazifalari
22. Front-ofi s va Bek-ofi sdan iborat bo'lgan bank buxgalteriya apparatining xususiyatlari
23. Bank balansi va uning tuzilishi
24. Ichki bank nazorati va uning turlari

25.Banklararo hisob-kitoblar hisobi
26.Naqd pulsiz hisob – kitob operatsiyalari hisobi.
27.Plastik kartochkalarning turlari va ular bilan operatsiyalar o'tkazish tartibi
28.Mijozlarning naqd pul tushumini inkassatsiya qilish operatsiyalarini hisobga olish
29. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlar hisobi.
30. Bank daromadlari va harajatlari hisobi.
31.Banklarda soliqlar hisobi.
32.Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi
33.Bank hujjatlari va hujjatlar aylanishi, bank ichki nazorati.
34.Mijozlarga hisobvaraq ochish va yuritish tartibi
35. Naqd pulsiz hisob – kitob operatsiyalari hisobi.
36.Banklarda qimmatli qog`ozlar bilan operatsiyalar hisobi
37.Qimmatli qog`ozlar bo`yicha operatsiyalar hisobi.
38.Qimmatli qog`ozlari bilan investitsiyaviy vositachilik operatsiyalari hisobi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

- Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Zamonaviy banklar iqtisodiyotining ishlashi va rivojlanishining nazariy asoslarini; Aktiv va passiv operatsiyalari; Raqobatlashgan va raqobatlashmagan banklarning asosiy xususiyatlarini va ushbu banklarda harakat qilish qoidalarini; Bank buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari; Bank buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning ahamiyati va foydaliligini *bilishi kerak:*

Banklarda operatsiya jarayonlarining rivojlanishi, hamda salbiy va ijobiy tomonlari borasida; Turli banklarning strukturalarida aktiv vapassiv operatsiyalari to`g`risida; Banklarning ishlash samaradorligi va unga ta`sir qiluvchi omillar; Buxgalteriya hisobidagi xato yozuvlarni tuzatish; Bank balansi va uning tuzilishi va turli oraliqlarda foydani maksimallashtirish shartlari haqida ***tasavvurga ega bo`lmog`i lozim:***

Bankdagi analitik va sintetik hisob to`g`risidagi statistik ma`lumotlar asosida bankni tahlil qilish va xulosalar chiqarish; Statistik ma`lumotlar asosida aktiv va passiv operatsiyalarini o'rganish va ular asosida bankdagi holatni tahlil va bashorat qilish; Raqobatlashgan va raqobatlashmagan banklar harakatini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish ***malaka va konikmalariga ega bo'lmog'i lozim.***

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning

39."Klaster";
40."Bumerang";
41."Fikrlar hujumi",
42."Munozarali dars",
43."FSMU" singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi va mashg'ulotlardagi ma'lumotlar multimedia vositalari yordamida taqdimot qilinadi.

VII. Kreditni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan iqtisodiy qarashlar va fikrlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy

	nazorat ishini topshirish
	Asosiy adabiyotlar 1. Z. Umarov Banklarda Buxgalteriya hisobi. Darslik Toshkent 2021 - 614 bet 2. F.T. ABDUVAXIDOV, Z.A. UMAROV, K. N. DJURAYEV BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI Toshkent 2018 224 bet 3. K. N. Navro'zova, N.G'. Karimov, U.D.Ortiqov BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI Darslik Toshkent-2016 400 bet **Qo'shimcha adabiyotlar** 1. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika T.; "Iqtisod – Moliya", 2018.-89 b 2. BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI.O'quv uslubiy majmua.2018.259-bet 3. K.N.Navro'zova BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA OPERATSION TEXNIKA O'quv qo'llanma Toshkent. "IQTISOD-MOLIYA" 2010 **Axborot manbalari (saytlar):** www.cbu.uz; www.bis.org; www.ecb.eu ; www.bank.uz; www.uba.uz
7.	Fan dasturi SamDUKF kengashining 2022-yil 5-sentyabr avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan modul uchun mas'ullar:** Hamidov Doston
9.	**Taqrizchilar:** Ibragimova Nilufar – SamDUKF Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi asisstent o'qituvchisi